



## MINTAQA TASHQI IQTISODIY ALOQALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

**Xayitova Feruza Baxrom qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi  
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy  
asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi*

*ORCID: 0009-0006-6903-7751*

*[xayitova1994@mail.ru](mailto:xayitova1994@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola mintaqa tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari davlatlar va mintaqalararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan strategiyalar va amaliyotlarni o'z ichiga oladi hamda ushbu zamonaviy tendensiyalarning globalizatsiya va integratsiya, raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsiya va texnologik taraqqiyot kabi asosiy yo'nalishlari borasida so'z boradi. Ushbu tendensiyalar mintaqalararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda asosiy omillar bo'lib, ular iqtisodiy o'sishni ta'minlash, savdo va investitsiya oqimlarini oshirish hamda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Yurtimizda bu tendensiyalar mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va xalqaro savdoda raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

**Kalit so'zlar:** Mamlakat, iqtisod, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport, import, tashqi savdo, tarmoq, global savdo shartnomalari, tovar-xizmatlar.

## СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ РЕГИОНА

**Хайитова Феруза Бахром кизи**

*Научно-исследовательский центр «Научные основы  
и проблемы развития экономики Узбекистана»  
при Ташкентском государственном  
экономическом университете*

**Аннотация.** В данной статье представлены современные тенденции развития внешнеэкономических связей региона, стратегии и практики, направленные на укрепление экономических связей между странами и регионами, а также глобализация и интеграция этих современных тенденций, цифровая экономика, устойчивое развитие, развитие транспорта и логистическая инфраструктура, инновации и технологический прогресс. Эти тенденции являются основными факторами развития межрегиональных экономических связей, которые служат обеспечению экономического роста, увеличению торговых и инвестиционных потоков, поддержке устойчивого развития. В нашей стране эти тенденции играют важную роль в обеспечении экономической стабильности страны и повышении ее конкурентоспособности в международной торговле.

**Ключевые слова:** Страна, экономика, внешнеэкономические связи, экспорт, импорт, внешняя торговля, сеть, глобальные торговые соглашения, товары и услуги.

## DEVELOPMENT OF FOREIGN ECONOMIC RELATIONS OF THE REGION MODERN TRENDS

**Khayitova Feruza Bakhrom kizi**

*Research center "Scientific bases and issues of economic development of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics*

**Annotation.** *This article presents modern trends in the development of foreign economic relations of the region, strategies and practices aimed at strengthening economic ties between countries and regions, as well as globalization and integration of these modern trends, digital economy, sustainable development, development of transport, logistics infrastructure, innovation and technological progress. These trends are the main factors in the development of interregional economic relations, which serve to ensure economic growth, increase trade and investment flows, and support sustainable development. In our country, these trends play an important role in ensuring the country's economic stability and increasing its competitiveness in international trade.*

**Key words:** *Country, economy, foreign economic relations, export, import, foreign trade, network, global trade agreements, goods and services.*

### **Kirish.**

Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan jadal islohotlar jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoitida ham iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishini yanada yuksaltirish imkonini bermoqda. Ayniqsa davlatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada takomillashtirish eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga va aholi turmush tarzini yanada yaxshilanishiga olib keladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda mahsulotlar, mehnat, xizmatlar, axborotlar va intellektual soha natijalari bo'yicha dunyo miqyosida tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, xizmatlarni eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Umuman olganda, tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iboratdir:

- tashqi savdo faoliyati;
- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- chet-el investitsiyalarini jalb qilish.

Bugungi kunda mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro savdoning rivojlanishi, ishlab chiqarish integratsiyalashuvining kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatning yanada erkinlashuviga turtki bo'lmoqda. Darhaqiqat, davlatimiz tashqi siyosatida ham qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari bilan do'stona hamda manfaatli aloqalarni rivojlantirishni muhim yo'nalish deb belgilanishi va ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar va tashabbuslar natijasida oxirgi yillarda mintaqada siyosiy muloqat hamda o'zaro ishonch mustahlamlandi. Davlat rahbarlarining o'zaro Maslahat uchrashuvlari va rasmiy tashriflar almashinuvi yo'lga qoyildi. Shu bilan bir qatorda, mintaqada suvdan foydalanish, chegaralarni kesib o'tish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish kabi masalalarga yechim topildi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Mintaqa tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish mavzusida yozilgan adabiyotlar keng qamrovli bo'lib, ular iqtisodiyot, savdo, investitsiyalar, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish kabi turli yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan.

Amerikalik iqtisodchi Joseph Stiglitz (2017) tomonidan "Globalization and Its Discontents" tomonidan yozilgan kitob globalizatsiya jarayonining iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarini tahlil qiladi. Stiglitz globalizatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rib chiqadi va uning oqibatlarini haqida chuqur tahlil qilgan. Kanadalik muallif tomonidan esa "Digital

Economy: Key Concepts and Trends" kitobida elektron tijorat, raqamli xizmatlar va fintech innovatsiyalari haqida batafsil ma'lumot beriladi, bu esa davlatlar va mintaqalar uchun raqamli transformatsiyaning muhimligini ko'rsatib bergan. Iqtisodchi olimlar John Mangan, Chandra Lalwani hammuallifidagi "Global Logistics and Supply Chain Management" kitobida global logistika va ta'minot zanjirlarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini tahlil qilishgan. Theodore Moranning "Foreign Direct Investment and Development" kitobida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanish va global savdo aloqalariga ta'sirini tahlil qiladi.

Mahalliy olimlardan Avazovning (2013) "tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari" ma'ruzasi mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar, chet davlatlar bilan olib borilayotgan tashqi iqtisodiy aloqalar borasida so'z borgan. Raxmatullayeva, Abdulloyev, Giyazova, Narzullayevalarning (2021) "Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti" (2021) o'quv qo'llanmasida tashqi iqtisodiy aloqalarning ahamiyati, amalga oshirilayotgan bozor o'zgarishlari, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti, ichki bozorning tashqi bozor bilan hamkorligining shakllanayotgan butunlay yangi asoslari deya ta'rif berganlar.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.


Respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2023 yil yanvar-dekabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 62,6 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2022 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 12,1 mlrd. AQSH dollariga yoki 23,9 % ga oshishini ta'minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etildi

## 1-jadval

Tashqi savdo aylanmasi va balansi (mln. AQSH dollari)

	2022 yil	2023 yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	50 500,3	62 567,4	123,9	x
<b>Eksport</b>	19 732,6	24 426,2	123,8	100,0
tovarlar	11 020,3	10 989,9	99,7	45,0
xizmatlar	4 456,7	5 179,7	116,2	21,2
nomonetar oltin	4 255,6	8 256,6	194,0	33,8
<b>Import</b>	30 767,8	38 141,2	124,0	100,0
tovarlar	28 220,3	35 574,8	126,1	93,3
xizmatlar	2 547,5	2 566,4	100,7	6,7
<b>Saldo</b>	-11 035,2	-13 715,0	x	x

Quyida berilgan jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 24 426,2 mln. AQSH dollariga (23,8 % ga ko'paydi) va import hajmi 38 141,2 mln. AQSH dollariga (24,0 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo taqchilligi 13,7 mlrd dollardan ortiqni tashkil etdi, bu 2022-yilga nisbatan 24,3 foizga ko'p (-11,03 mlrd. dollar). Agar rekord darajadagi oltin eksporti va xizmatlar sohasidagi ijobiy saldo bo'lmaganida, bu ko'rsatkich yanada yuqori bo'lardi.



**1-diagramma. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi<sup>101</sup>**  
(mlrd. AQSH dollari)

Yuqoridagi diagrammada ko'rinib turibdiki, 2023 yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 62,6 mlrd. AQSH dollarini tashkil qildi, 2019 yilga nisbatan 20,8 mlrd. AQSH doll. yoki 1,5 baravar o'sish qayd etilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, tashqi savdo aylanmasining YAIMga nisbati ham sezilarli darajada o'sib bormoqda, bu savdo jihatidan iqtisodiyotning o'sishidan dalolat bermoqda.

Bizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri bu - O'zbekistonni jahon mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlanish sur'atlaridagi salbiy jarayonlarni bartaraf etish hamda davlatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada erkinlashtirish va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirishdir. Bu borada davlatimizning ko'plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosiga aylanishi muhim sanaladi.

Tashqi savdoni rivojlanishida mamlakatimizda so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Ijobiy o'zgarishlarga quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- eksport-import bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni ro'yxatga olish amaliyotini soddalashtirilishi;
- tashqi iqtisodiy aloqalar import kontraktlarini dastlabki ro'yxatga olishning bekor qilinishi;
- qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha turdagi soliq va yig'imlarni to'lashdan ozod qilingan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan raqobatbardosh tayyor iste'mol tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralarning qo'llanilishi;

Shu bilan birga, Davlat bojxona qo'mitasi (DBQ), Markaziy Bank (MB) va Davlat soliq qo'mitasi (DSQ) o'rtasida tashqi savdo amaliyotlarida ayriboshlashning yagona elektron tizimining yaratilishi hamda joriy xalqaro amaliyotlar bo'yicha milliy valyutani (so'mni) erkin ayriboshlash, konvertastiyaning kiritilishi; yuridik shaxslar, shuningdek eksport-import amaliyotlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar uchun yog'och va yog'och mahsulotlarini import qilishda bojxona to'lovi stavkasi nolga tenglashtirilishi.

<sup>101</sup> <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>

Bugungi kunga kelib, yurtimizning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyalaridan biri import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan birga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi prezident farmonining maqsadlaridan biri respublika hududlari va xorijiy mamlakatlar biznes vakillari o'rtasida tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish, jumladan Janubiy Osiyo, Yaqin, O'rta Sharq va Afrika davlatlari bilan iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish (Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Qatar, Pokiston, Hindiston, Eron) hamda MDH hududidagi va Amerika mintaqasidagi kuchli iqtisodga erishgan davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirish<sup>102</sup> bo'yicha alohida ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishi mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhitining yanada yaxshilanishini, korxonalar ishlab chiqarishiga xorijdan zamonaviy texnika-texnologiyalarni jalb etishni faollashtiradi, bu esa o'z navbatida mahsulotlar eksportini ko'payishiga, umuman olganda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni faol tarzda amaliyotga joriy etishga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Mintaqa tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari bir qancha asosiy yo'nalishlarda ko'zga tashlanmoqda. Quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

### 1. Globalizatsiya va Integratsiya

#### *Global Savdo Shartnomalari*

• **Jahon Savdo Tashkiloti (World Trade Organization):** JST 1995-yilda tashkil etilgan bo'lib, 164 a'zo davlatni o'z ichiga oladi. Uning maqsadi xalqaro savdoni tartibga solish va savdo nizolarini hal qilishdir. JST savdo siyosati, qoidalari va reglamentlarini muvofiqlashtiradi, bu esa davlatlar o'rtasidagi savdo to'siqlarini kamaytiradi. Jahon Savdo Tashkiloti (World Trade Organization) ma'lumotlariga ko'ra: 2023 yilda jahon tovar savdosi hajmi 22.2 trillion AQSh dollariga yetdi, bu 2022 yilga nisbatan 3.7% o'sishni ko'rsatadi.

• **Erkin Savdo Bitimlari (Free Trade Agreement):** Erkin savdo bitimlari ikki yoki ko'proq mamlakat o'rtasida bojxona to'siqlarini pasaytirish yoki bekor qilish orqali savdoni osonlashtiradi. Misol sifatida, Yevropa Ittifoqi va Kanada o'rtasidagi Comprehensive Economic and Trade Agreement (CETA) yoki AQSh, Meksika va Kanada o'rtasidagi USMCA bitimlari keltirilishi mumkin. Bu bitimlar savdo oqimlarini oshiradi va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi.

#### *Mintaqaviy Savdo Bloklari*

• **Yevropa Ittifoqi (European Union):** Yevropa Ittifoqi yagona bozor va bojxona ittifoqi orqali savdo va investitsiya oqimlarini kuchaytiradi. 27 a'zo davlat iqtisodiyotlarini birlashtirgan yevropa ittifoqi, ichki bozor orqali erkin savdo, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakatini ta'minlaydi.

• **ASEAN:** Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlar Assotsiatsiyasi (The Association of Southeast Asian Nations) 10 a'zo davlatni birlashtirib, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va savdo to'siqlarini kamaytirish orqali mintaqaviy savdo va investitsiyalarni rag'batlantiradi. Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlar Assotsiatsiyasi (ASEAN) Economic Community (AEC) orqali bu davlatlar iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi va yagona bozor yaratishga intiladi. 2023 yilda Janubi-Sharqiy Osiyo Millatlar Assotsiatsiyasi davlatlari o'rtasidagi ichki savdo hajmi 700 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu mintaqa savdo aloqalarining kuchayganini bildiradi.

### 2. Raqamli Iqtisodiyot

#### *Elektron Tijorat*

• **E-commerce platformalari:** Amazon, Alibaba, eBay kabi platformalar xalqaro savdoni osonlashtiradi. Ushbu platformalar kichik va o'rta korxonalariga global bozorga chiqish imkonini beradi, shuningdek, iste'molchilar uchun keng tanlov imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijorat global savdo hajmini oshiradi va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. 2023

<sup>102</sup> <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

yilda global elektron tijorat savdosi hajmi 5.5 trillion AQSh dollariga yetdi, bu 2022 yilga nisbatan 20% o'sishni ko'rsatadi.

- **Digital marketplaces:** Raqamli bozorlar va onlayn savdo maydonchalari yangi biznes modellari va xalqaro savdo imkoniyatlarini yaratadi. Bu platformalar mahsulot va xizmatlarning keng turini taklif etadi, shuningdek, xaridorlar va sotuvchilar o'rtasidagi masofani kamaytiradi. Masalan, 2023 yilda Amazon va Alibaba platformalaridagi umumiy savdo hajmi 1.2 trillion AQSh dollariga yaqinlashdi.

#### *Raqamli Xizmatlar*

- **IT va telekom xizmatlari:** Telekommunikatsiya infratuzilmasi va internet xizmatlarining rivojlanishi mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi. Bu sohalar nafaqat yangi ish o'rinlari yaratadi, balki iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

- **Fintech:** Moliyaviy texnologiyalar, shu jumladan mobil to'lovlar va onlayn banking, xalqaro moliyaviy xizmatlarni yanada qulay va tezkor qiladi. Fintech innovatsiyalari, masalan, PayPal, Alipay va boshqa to'lov tizimlari xalqaro savdoni osonlashtiradi va o'tgan yilda global fintech sektori investitsiyalari 200 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu sohadagi tezkor o'sishni tasdiqlaydi.

### **3. Barqarorlik va Yashil Iqtisodiyot**

#### **Yashil Texnologiyalar**

- **Qayta tiklanadigan energiya:** Quyosh, shamol, gidroenergiya kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanishi ekologik toza iqtisodiyot uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu texnologiyalar uglerod emissiyalarini kamaytiradi va energiya xavfsizligini ta'minlaydi. Buni yaqqol 2023 yilda qayta tiklanadigan energiya manbalarining umumiy quvvati 3.4 terawatt (TW) ga yetdi, bu 2022 yilga nisbatan 10% o'sishni ko'rsatadi.

- **Energiya samaradorligi:** Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha texnologiyalar va amaliyotlar xalqaro hamkorlikni rag'batlantiradi. Masalan, yuqori samaradorlikka ega qurilmalar va ishlab chiqarish jarayonlari energiya sarfini kamaytiradi. 2023 yilda global yashil texnologiyalar investitsiyalari 500 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

**Hozirgi kunda O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish bo'yicha Jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashgan holda Jahon savdo tashkiloti a'ziligiga intilmoqda va mintaqaviy savdo bloklari.** Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning xalqaro savdo va investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, davlatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, ayniqsa, elektron tijorat va fintech sohalarida sezilarli o'sishni ko'rsatib, sohalarda amalga oshirilayotgan loyihalar va dasturlar raqamli infratuzilmani yaxshilash va mintaqalar o'rtasida xalqaro aloqalarning raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirishga qaratilmoqda. Buning natijasi o'laroq, oxirgi yillarda O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari sezilarli darajada rivojlanib, mamlakatning xalqaro savdo, investitsiya va iqtisodiy inetgratsiya jarayonlarida faol ishtirok etayotganini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizning eksporti mintaqalararo asosan tabiiy resurslarga, jumladan, paxta, oltin, tabiiy gaz, kimyoviy mahsulotlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga asoslangan. So'nggi yillarda sanoat mahsulotlari, avtomobilsozlik va tekstil mahsulotlari eksporti ham ortib bormoqda. 2023 yilda O'zbekistonning eksport hajmi taxminan 19 milliard AQSh dollarini tashkil etdi. Shuningdek, mamlakat importi asosan mashinasozlik, texnologik uskunalari, avtomobillar, oziq-ovqat mahsulotlari va neft mahsulotlari tashkil qiladi va o'tgan yilda import hajmi 25 milliard AQSh dollariga yaqinlashdi. O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya va Yevropa Ittifoqi davlatlari hisoblanadi hamda bu davlatlar bilan savdo aloqalari yil sayin kengayib bormoqda. Mamlakatimiz qo'shni davlatlar bilan ham iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan savdo va transport aloqalari sezilarli darajada kengaymoqda.

### **Xulosa takliflar.**

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, mintaqa tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari global va mintaqaviy miqyosda jadal o'sib bormoqda. Bu tendentsiyalar iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Jahon Savdo Tashkiloti a'zosiga aylanish jarayonini davom ettirmoqda, bu esa xalqaro savdoni kengaytirish va bojxona to'siqlarini kamaytirish imkonini beradi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyani kuchaytirib, savdo aloqalarini rivojlantirmoqda. Masalan, Qozog'iston va Qirg'iziston bilan imzolangan savdo bitimlari savdo hajmini oshirdi. Bundan tashqari, O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mahalliy elektron tijorat platformalari va xalqaro hamkorliklar orqali elektron tijorat hajmi sezilarli darajada oshdi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, O'zbekiston olib borayotgan faol tashqi siyosat mamlakatning xalqaro nufuzini oshirish bilan bir qatorda, Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega hamkorlik makoniga aylanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekiston uchun muhim siyosiy hujjat – Konstitutsiya qonun loyihasi ham O'zbekistonning o'zaro manfaatli, ochiq va pragmatik tashqi siyosatini izchil olib borishi, mamlakat atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini ta'minlashi, mintaqa davlatlari bilan ahil qo'shnichilik va o'zaro manfaatli aloqalarini yanada mustahkamlashi, hamkor davlatlar va xalqaro tashkilotlar doirasida milliy manfaatlarni faol ilgari surishi, shuningdek O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishiga mustahkam zamin yaratadi. Bundan tashqari, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi va savdo, investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot va mintaqaviy integratsiya sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar va strategiyalar mamlakatning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot yo'nalishidagi sa'y-harakatlari ham iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar / Лумепамыпа/ Reference:**

Avazov E.X. (2013) "Tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari" fanidan tayanch ma'ruza- TermDU.

Joseph E. Stiglitz: (2017) "Globalization and Its Discontents".

Raxmatullayeva F.M., Abdulloev A.J., Giyazova N.B., Narzullayeva G.S. (2021) "Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti" – O'quv qo'llanma. Buxoro.